INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.4 №5 (2026). MAY
innovativepublication.uz

ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARINING IQTISODIY MOHIYATI VA RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI O‘RNI

Amanqulova Muxlisa Narsafar qizi
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan O’zbekisto Respublikasi hududida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va mavjud muammolarni bartaraf etish. Raqamli iqtisodiyotning qulayliklari va yangi imkoniyatlaridan davlat miqiyosida foydalanish. Bizning mamlakatimiz ham rivojlangan davlatlar qatorida bo’lishi zarurligi va raqamli iqtisodiyotning barcha sohalardagi beqiyos o’rni haqida so’z boradi.
Kalit so’zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, kommunikatsiya, infratuzilma, elektron tijorat, investitsiya, logistika, aloqa operatorlari, innovatsiyalar.

Kirish. Raqamli iqtisodiyotning yuksalishi 21-asrning o’ziga xos xususiyatlaridan biridir. Albatta bugungi kunni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin albatta. Aql-zakovat va ilm - taraqqiyot qanotidir. Zamonaviy ilm-fanning cho‘qqisi yuqori texnologiyalarda, raqamli olamda ko‘zga tashlanadi. To‘rtinchi sanoat inqilobi taraqqiyotning yangi ko‘rinishi - “raqamli iqtisodiyot” boshlanganini anglatadi. Bugungi kunda biz yaqin kelajakda erishmoqchi bo‘lgan ulkan maqsadlarga egamiz.Buning uchun bizga albatta yetuk kadrlar,mutaxassislar kerak. Raqamli texnologiyalar jamiyat va iqtisodiyotga ko’p jihatdan ta’sir qiladi, shu jumladan yangi aloqa va hamkorlik vositalari orqali; xizmat ko’rsatishning kuchli tarkibiy qismiga ega bo’lgan yangi mahsulotlar; ma’lumotlarning iqtisodiy o’sish omili sifatida roli; sun’iy intellect (AI) yordamida vazifalarni avtomatlashtirish; va platformalar kabi yangi biznes modellarining paydo bo’lishi. Shu sababli raqamlashtirish bizning hayotimiz va birgalikda ishlash tarzimizni tubdan o’zgartiradi. Bu butun davlat rivojlanishi va farovonligi demakdir.

Shuningdek,barcha sohalarda korxonalar, tashkilotlar uchun samaradorlik, vaqt, bandlike,ko’nikma,daromadlarni to’g’ri taqsimlash ,atrof muhit va tashqi olamga katta ta’sir ko’rsatadi.

Hozirda biz asosan O’zbekiston rivojlangan davlatlar qatorida bo’lish uchun harakatdan to'xtamasligimiz zarur.Xorijiy davlatlarda bizga qaraganda raqamli

iqtisodiyot ancha rivojlangan.Iqtisodiyotning raqamlashishi bu mamlakat taraqqiyoti uchun muhim.Bugungi kunda raqamli iqtisod rivojlanishi barcha sohalar rivoji bilan chambarchas bog'liq.

Mavzuga oid adabiyotlar va metodlar tahlili. Elektron tijorat infratuzilmasini geoiqtisodiy shakllantirish masalalari, mazkur soha orqali moliya va iqtisodièt tarmoqlarining boshqa sohalarini rivojlantirish yo'nalishlari Shu kunga qadar elektron tijoratni amalga oshirish vositalaridan biri bo'lgan masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish, elektron tijoratning inratuzimasini rivojlantirish masalalari xorijiy iqtisodchi olimlardan, xususanAQShdagi Fairleigh Dickinson universiteti professori Zwass Vladimir electron tijoratning infratuzilmasini geoiqtisodiy jihatdan o'rganib, dunèda electron tijoratning rivojlanishi uchun muhim hisoblangan asosiy jihatlarni mazkur sohaning infratuzilmasi sifatida qayd etadi. Ya'ni, davlat va xususiy kommunikattsiyalari utilitalari, ―Wide-area‖ telekommunikatsiyalari, multimediya va gipermediya boshraruv ob'ektlari elektron tijoratning asosiy infratuzilmalari hisoblanadi. MDH davlatlari iqisodchi olimlaridan Axmetova Zaures va Moldir Belgoz qizining ilmiy ishlarida raqamli iqtisodiètni zamonaviy tamoyillar asosida rivojlantirishda elektron tijoratning asosiy yo'nalishlari hamda uning infratuzilmasi o'rganilgan. Elektron tijoratning kengaytirilgan invratuzilmasining tarmoqlari klassifikatsiya qilishgan. Ularning ilmiy ishlarida rivojlangan davlatlarda elektron tijoratning iqtisodiètdagi o'rni tahlil etilgan. O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish, bu borada mazkur sohani tartibga solish masalalari qator olimlar, ilmiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida aks ettirilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, akademik S.S.Gulyamovning ilmiy ishlarida raqamli iqtisodiètni rivojlantirish, elektron tijoratning inratuzilmasini geoiqtisodiy jihatdan shakllantirish yo'nalishlari, interenet savdolarini yanada kengaytirish masalalari o'rin olgan. Shuningdek, electron tijoratning muhim elementlaridan, xususan―business-to-business, B2B, ―business-to-consumer, B2C, ―business-to-administration, B2A, ―consumer-to-administration, C2A modellari haqida baafsil malumotlari berilgan.

Maqolada verbal sharhlash, guruhlash, statistik kuzatuv, mantiqiy fikrlash hamda sxematik tahlil usullaridan keng foydanilgan.

Tahlil va natijalar. Raqamli iqtisodiyot – bu innovatsion g'oya.Ushbu fikr Jahon banki tomonidan 2016-yil "Jahontaraqqiyoti haqida ma'ruza – 2016: raqamli dividendlar" ma'ruzasida ma'lum qilingan. Ushbu tadqiqot xulosalari mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning naqadar dolzarbva muhim masala ekanligini ko'rsatadi. Xususan Internet tezligining 10 foizga o'sishi mamlakat YaIMning o'sishiga ham ta'sir qiladi. Rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich 1,21

foizni tashkiletsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 1,38 foizgateng. Demak, Internet tezligi 2 baravar oshadiganbo‘lsa, YaIM hajmi 13–14 foiz ortishiga erishish mumkin.

Raqamli iqtisodiyot tarkibiga elektron hukumat, elektron biznes, elektron kommersiya, raqamliiqtisodiy munosabatlar, raqamli banklar, raqamli arxivlar, virtual korxonalar, kripto-valyutalar, elektronpullar, ijtimoiy tarmoqda marketing xizmatlaridanfoydalanish, blokcheyn texnologiyasini joriy etish,korxonalarning raqamli “cho‘ntak”lari, raqamli dividendlar va boshqalar kiradi.

Raqamli iqtisodiyot yo‘nalishlari bigdata, sun’iyintellekt, blokcheyn, kvant texnologiyalari, ishlabchiqarish texnologiyalari, sanoat Interneti, robototexnika, simsiz aloqa, virtual reallik kabilardaniborat.

Elektron tijorat – bu kompyuter tarmoqlari yordamida amalga oshiriladigan barcha moliyaviy va savdo operatsiyalarini va shu kabi operatsiyalar bilanbog‘liq bo‘lgan biznes jarayonlarini o‘z ichiga olgan iqtisodiyot sohasi hisoblanadi.

- Elektron tijoratga quyidagilar kiradi:
- Elektron ma’lumot almashish (ElectronicsData Interchange, EDI);
- Elektron kapital harakati (Electronic FundsTransfer, EFT);
- Elektron savdo (inglizcha e-trade);
- Elektron pullar (e-cash);
- Elektron marketing (e-marketing);
- Elektron bank (e-banking);
- Elektron sug‘urta xizmatlari (e-insurance).

Elektron tijoratning birinchi tizimlari va usullari sotishni avtomatlashtirish texnologiyalari paydo bo‘lishi va korporativ resurslarni boshqarish avtomatlashtirilgan tizimlarning joriy qilinishi bilan bog‘liq.

1960-yilda Amerikaning American Airlines va IBM kompaniyalari parvozlarni bron qilish uchun avtomatlashtirish tizimini yaratishga kirishdilar. SABRE (Semi-Automatic Business Research Environment), ya’ni Yarim Avtomatik Tadqiqot Atrofmuhit tizimi oddiy yo‘lovchilar uchun havo qatnovini yanada arzonlashtirib, ularga doimiy ravishda o‘sib borayotgan parvozlar va parvoz tariflarini boshqarishda yordam bergan. O‘rindiqlarni bron qilishda tariflarni hisoblash jarayonini avtomatlashtirish tufayli xizmatlar narxi pasayib, yo‘lovchilar tashish hajmi ortgan4 . American Airlines va IBM o‘rtasidagi qo‘shma loyiha elektron tijoratning birinchi namunasidir.

1971-yilda Stenford universiteti va Massachusets texnologiya instituti talabalari Stenford sun’iy intellekt laboratoriyasining ARPANET kompyuter tarmog‘idan

foydalanib, marixuanani sotishni tashkil etishgan. Keyinchalik, ushbu bitimlar birinchi onlayn o‘tkazmalar, elektron tijoratning boshlanishi deb hisoblangan.

1979-yilda Maykl Oldrich birinchi onlayn xarid qilish tizimini taqdim etgan.

1981-yilda biznes uchun birinchi onlayn xarid qilish tizimi Thomson Holidays UK tashkil etilgan.

1982-yilda Minitel France Télécom tomonidan butun mamlakat bo‘ylab taqdim etilgan va onlayn buyurtmalar uchun foydalanilgan.

yurtmalar uchun foydalanilgan. 1983-yilda Kaliforniya shtati assambleyasi Vulkan shahrida (Kaliforniya shtati) birinchi “elektron tijorat” tinglovini o‘tkazgan.

1995-yilda Jeff Bezos Amazon.comni ishga tushirgan va birinchi 24 soatlik reklamasiz Radio HK va NetRadio radiostansiyalar ish boshlagan. eBay dasturchi Per Omidyar tomonidan AuctionWeb nomi bilan yaratilgan. To‘rt yildan so‘ng Xitoyda Alibaba Group tashkil etilgan. 1997-yilda 149 ming AQSh dollariga tashkil etilgan Business.com eCompaniesga 7,5 mln. dollarga sotilgan. Huddi shu davrda Napster-dan peer-to-peer dasturi ishga tushirilgan. ATG Stores Internet orqali uy bezak buyumlari savdosini boshlagan. 2001-yil dekabr oyida Alibaba.com rentabellikka erishgan. 2002-yilda eBay PayPal-ni 1,5 mlrd. dollarga sotib oldi.

Amazon.com 2003-yilda o‘zining birinchi yillik daromadini e’lon qildi.

2004-yilda B2B onlayn-tranzaksiyalari bo‘yicha birinchi xitoy platformasi DHgate.com yaratilgan va bu boshqa B2B saytlarini “sariq sahifalar” modelidan ketishiga sabab bo‘lgan

2007-yilda Business.com saytini R. H. Donnelley 345 mln. dollarga sotib olgan.

2015-yilda Amazon.com AQShga qariyb 500 mln. SKU sotish orqali elektron savdo o‘sishining yarmidan ko‘pini tashkil etgan.

Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etishga allaqachon kirishilgan. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan erishib bo‘lmaydi.

Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, kurrai zaminimiz umumiy boyligining 66 foizi - 365 trillion AQSH dollari inson kapitaliga, ya’ni asosan shaxsning ilm darajasiga to‘g‘ri kelmoqda. AQSHda ushbu ko‘rsatkich milliy boylikning 77 foizi - 95 trillion dollarga yetgan. Shuning uchun davlatimiz rahbari joriy yil Murojaatnomada “Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir!” degan fikrni alohida keltirib o‘tdi.

Bugungi kunga kelib jahonda raqamli iqtisodiyot taraqqiy etgan 20 mamlakatda 2

trillion AQSH dollarini tashkil etayotgani hisoblab chiqilgan. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda dunyoda peshqadam Buyuk Britaniyada esa u hozirning o‘zida milliy yalpi ichki mahsulotning 12 foiziga yetdi. Raqamli iqtisodiyot texnologik va biznes jarayonlari, ishlab chiqarish, logistika va tayyor mahsulotlarning savdosini raqamlashtirishni nazarda tutadi. Mamlakatimizda 2020-yilning o‘zida transport, geologiya, ta’lim, arxiv kabi sohalarni to‘liq raqamlashtirish belgilangan edi. Zamonaviy infratuzilmaga ega bo‘lgan “IT-park”lar ham fikrimiz dalilidir. Aholining barcha qismida ham raqamli malakaning yetarli emasligi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘ldagi yana bir to‘siq bo‘lib kelgan. Shuningdek, raqamli tovar aylanmasi ham past hisoblandi. Bu borada texnologiya olamida ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan “Microsoft” korporatsiyasi asoschisi Bill Geytsning bir fikrini eslash o‘rinli: “Tez orada Yer sharida faqat ikki tur kompaniyalar mavjud bo‘ladi. Birinchisi, internet orqali biznes qiluvchi va ikkinchisi, biznesdan chiqqan kompaniyalar”. Tadbirkorlar mana shu jihatni inobatga olgan holda, dunyoga mashhur biznes iste’molchi uchun, biznes biznes uchun, iste’molchi iste’molchi uchun tamoyillari asosida o‘z faoliyatini tashkil etishi maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston raqamli sanoat bozorini shakllantirish uchun uchta muhim shartni belgilab olish zarur. Raqamli muhitni me’yoriy tartibga solish (konsepsiya, dastur va qonun), infratuzilmaviy rivojlanish (data markaz, mobil, internet, biznes va ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish qurilmalari) va mutaxassislarni tayyorlash sog‘lom bozorni yaratishda tirgak bo‘ladi.

Raqamli iqtisodiyot bu - real voqe’llikni to‘ldirib turadigan virtual muhitdir. Raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g’oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish sohasida davlat organlari va tadbirkorlik sub’ektlarining yaqin hamkorligini ta’minlash.

Blokcheyn texnologiyalarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish sohasida amaliy ish ko’nikmalariga ega bo’lgan malakali kadrlarni tayyorlash. Horij tajribasinihisobga olgan holda blokchetn texnologiyalarini joriy etish uchun huquqiy baza yaratish kabi bir qancha vazifalarni oldimizga maqsad qo’yib va uni amalga oshirish kerak.

Raqamlashtirish iqtisodiyoti iqtisodiyotning alohida sohasi sifatida ikkita sababgako'ra mavjud. Birinchidan, yangi iqtisodiy modellar kerak, chunki raqamli dunyoda ma'lumot haqidagi ko'plab an'anaviy taxminlar endi mavjud emas. Ikkinchidan, raqamlashtirish natijasida hosil bo'lgan ma'lumotlarning yangi turlari tahlil qilish uchun yangi usullarni talab qiladi.

Xalqaro tajriba shundan dalolat bermoqdaki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosan ilmiy hamjamiyat va xususiy sektorda jadal rivojlanmoqda. Shuning uchun

davlat, aynan, ushbu sohalarda innovatsion loyihalarni qo'llab- quvvatlagan holda qulay ekotizmni yaratishi lozim. Click, Payme, M-bank, Upay, Oson va boshqa onlayn to‘lovlarga imkon beruvchi to‘lov tizimlari mavjud bo‘lishigaqaramay mobil to‘lovlar, internet, kommunal to‘lovlar uchun onlayn to‘lovlarni amalga oshirish ko‘rsatkichi yuqori emas. 2017-yilda 34 foiz hisob egalari raqamli to‘lovni amalga oshirgan. Solishtirish uchun bu ko‘rsatkich Buyuk Britaniyada 96 foizga teng. Bizda shu sohani rivojlantirib elektron tijoratni,elektron o'tkazmalarni rivojlantirishimiz zarur.Raqamli to'lov O'zbekistonda 34 foizni tashkil etayotgan bo'lsa,biz bu ko'rsatkichni 100 foizga chiqarish zarur.

2017-yilda dunyo bo‘ylab elektron tijorat chakana savdosi 2,36 trln. dollarga yetgan va 2016-yilga nisbatan 14,8 foizga o‘sgan. So‘nggi 20 yilda Internet tarmog‘idan foydalanuvchilar sonining jadal ko‘payishi, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa interfaol onlayn platformalar ta'sirining kuchayishi, elektron to‘lov tizimlarining dinamik rivojlanishi va yetakchi bozor ishtirokchilarining elektron tijorat uchun yangi texnologik platformalarga o‘tishi tufayli elektron tijorat bozori dinamik ravishda rivojlanmoqda. (Web 1.0 dan Web 2.0-ga, so‘ngra Web 3.0-ga)

Elektron tijorat iste'molchilarning maqsadli guruhiga muvofiq bir nechta toifalarga ajratiladi. Quyida ularning tasnifini ko‘rib chiqamiz.

Tijorat tashkilotlari:

- B2B (Business-to-Business) – “tijorat tashkilotlari o‘rtasidagi munosabatlar”;
- B2C (Business-to-Consumer) – “tijorat tashkiloti va iste'molchilar o‘rtasidagi munosabatlar”;
- B2E (Business-to-Employee) – “tijorattashkilotlari va xodimlar (ishchilar) o‘rtasidagi munosabatlar”;
- B2G (Business-to-Government) – “tijorattashkilotlari va hukumat o‘rtasidagi munosabatlar”;
- B2O (Business-to-Operator) – “tijorat tashkilotlari va aloqa operatori o‘rtasidagi munosabatlar”.

Asosan kiberxavfsizlik ham raqamli iqtisodiyotning muhuim sharti, nozik joyi desak ham bo'ladi.Iqtisodiyotni raqamlashtirganimizdan so'ng albatta xavfsizlik choralarini ham mukammal bartaraf etish kerak. Raqamlashuv va kiberxavfsizliktushunchalari doimo yonma-yon keladi. Chunki barcha tizim va jarayonlarni raqamlashtirish bilan birga, ularning texnik jihatdan mukammal va bexato ishlashini, xavfsizligini ta'minlash muhim hisoblanadi. Yurtimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qanchalik e'tibor qaratilayotgan bo‘lsa, kiberxavfsizlikni ta'minlash ham shuncha

dolzarblik kasb etmoqda. O‘zbekiston kiberxavfsizlik global indeksida o‘zi pozitsiyasini mustahkamlab bormoqda. 2017-yilda mamlakatimiz bu reytingda 93-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2018-yilda 52-o‘ringa ko‘tarildi.

Kiberxavfsizlik axborot xavfsizligining bir ko‘rinishi bo‘lish bilan axborotlarni saralab olishga xizmat qiluvchi yuksak ma’naviyatdan o‘zgacharoq tushuncha. U ko‘proq texnik jarayonlarga oid bo‘lib oddiy foydalanuvchi uchun pochta, ijtimoiy tarmoqlar, to‘lov tizimlarida ishonchli va mustahkam parollarni o‘rnatish, o‘z shaxsiy kompyuteri va smarfonini viruslardan himoyalashni anglatadi. Kengroq ma’noda esa kiberxavfsizlik tarmoqlar, mobil ilovalar va qurilmalarning himoyasiga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Bu ma’lumotlar konfidensialligini saqlash, ularningbutunligini himoyalash, u yoki bu sayt, ilova, dasturning to‘laqonli ishlashini anglatadi.“Kiberxavfsizlik markazi” DUK tahlillariga ko‘ra, 2019-yilda internetning milliy segmenti veb-saytlarida 268 ta kiberxavfsizlik insidenti aniqlangan. Bu raqamliolamdagi huquqbuzarliklar soni oldingi yilga qaraganda 44 foizga kamaygandeganidir. Shulardan 222 tasi kontentni ruxsatsiz yuklash, 45 tasi defeys (veb-saytsahifasiboshqa, masalan, reklama joylashtirilgan sahifaga almashtirilishinianglatuvchi xakerlik hujumi) va bittasi yashirin mayning (kriptovalyuta platformasidagi yashirin faoliyat) ulushiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekistonda barcha tizimla vaqt sayin,kun sayin raqamlashmoqda. Ayniqsa, koronavirus tufayli joriy etilgan karantin rejimida onlayn tovar va xizmatlarga bo‘lgan talab yana-da ortdi, barcha sohalarda raqamli funksiyalarning safi kengaydi. Bugun uydan chiqmasdan to‘lovlarni amalga oshirish, hech bir muammosiz masofaviy ta’lim olish, dunyoning yirik kutubxonalaridan foydalanish va hatto ishlash mumkin. Raqamli xizmatlar an’anaviy turga qaraganda qog‘ozbozlik, rasmiyatchilikning yo‘qligi, vaqtni tejash kabi bir qator afzalliklarga ega. Masalan, davlat xizmatlarini raqamli ko‘rinishda olsangiz, sizga belgilangan to‘lovning 10 foizi miqdorida chegirma taqdim etiladi.

Raqamlashtirish katta va misli ko’rilmagan imkoniyatlarni taqdim etadi. Shu bilan birga, bunday transformatsion texnologiyalarni rivojlanishida jiddiy noaniqliklar saqlanib qolmoqda. Hukumatlar jamiyat uchun yuzaga kelishi mumkin bo’lgan oqibatlar va ushbu paydo bo’layotgan texnologiyalar ularning boshqaruv faoliyatida yuzaga keladigan tanqidiy muammolarni chuqurroq tushunishga intilishlari kerak.

Tashkilotlar uchun loyihaning kompaniyaga aloqadorligi to‘g‘risida tomonlarning shubhalari (salbiyanonimlik), Internetda korxona faoliyatini qonuniylashtirish va faoliyatidagi ayrim qiyinchiliklar.

Iste'molchilar uchun Internet orqali sotiladigan xizmatlarga iste'molchilar ishonchsizligi15, tovarlarni qo'l bilan "ushlash" mumkin emasligi, sotib olingan mahsulotni yetkazib berishni kutish, tovarlarni qaytarishda mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va xarajatlar, mahsulotlarni yetkazib berish uchun qo'shimcha xarajatlar.

Jamiyat uchun firibgarlikning jozibador platformasi (tarmoq xavfsizligi darajasining pasayishi), oflayn-tijorat korxonalarini bozordan siqib chiqarishi.

Davlat uchun hisobning "kulrang" tizimini yuritishda davlat budjetiga soliq to'lovlarining to'liq kelib tushmasligidan iborat.

Elektron tijorat zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylandi. Iste'molchilar Internet orqali tovarlar sotib olib, shu bilan birga tijorat tashkilotlari o'zlarining tadbirkorlik faoliyatlarida ushbu tarmoqning imkoniyatlaridan keng foydalanmoqda. Internetda xarid qilishning birinchi sababi – haftaning yetti kunida tun-u kun xarid qilish imkoniyatining mavjudligidir.

Raqamli iqtisodiyotning oddiyiqtisodiyotdan farqi nimada? Masalan,xaridorga kiyim kerak. Uni bozorgatushib o'zi bevosita tanlasa va naqdpulga sotib olsa, bu an'anaviy iqtisod.Telegramdagi biron savdo boti yokikanal orqali o'ziga ma'qul tovarnitanlab, tovar egasiga pulni elektronto'lov tizimi orqali to'lash(payme,click, paynet, qiwi, webmoney,visacard...) va tovarni yetkazib berishxizmati orqali olish

– raqamliiqtisodiyot deyiladi. Bu masalani engsodda misol orqali tushuntirishdir.Aslida, hammamiz allaqachon raqamliiqtisodiyot ichidamiz, uningqulayliklaridan foydalanamiz.Masalan, oyliklarimiz plastikkartalarga tushadi, elektron to'lovorqali kommunal xizmatlar, telefon,internet va boshqa mahsulot vaxizmatlarga to'lov qilamiz, elektrontarzda soliq deklaratsiyasitopshiramiz, kartadan kartaga puluzatamiz, uyga taom buyurtma qilamizva hokazo.

Raqamli iqtisodiyot – bu noldanboshlab yaratilishi lozim bo'lganqandaydir boshqacha iqtisodiyot emas. Buyangi texnologiyalar, platformalar vabiznes modellari yaratish va ularnikundalik hayotga joriy etish orqalimavjud iqtisodiyotni yangicha tizimgako'chirish deganidir.

Belgilari:

-yuqori darajadaavtomatlashtirilganlik

-elektron hujjat almashinuvi;

-buxgalterlik va boshqaruvtizimlarining elektronintegratsiyalashuvi;

-ma'lumotlar elektron bazalari;

-CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabattizimi) mavjudligi:

1.To‘lovlar uchun xarajatlar kamayadi(masalan, bankka borish uchun yo‘lkira vaboshqa resurslartejaladi).

2.Tovarlar va xizmatlar haqida ko‘proqva tezroq ma’lumot olinadi.

3.Raqamli dunyodagi tovar vaxizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta.

4.Fidbek (iste’molchi fikri) ni tezolish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi.

5.Tezroq, sifatliroq, qulayroq.

Raqamli platformalarning rivojlanish sohasidagi yorqin misollardan biri sifatida “Alibaba” elektron savdo tizimiga ega bo‘lgan Xitoy kompaniyasini keltirib o‘tish mumkin. Undan foydalanish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ma’lumotlar to‘plash jarayonida iqtisodiyotning turli sektorlariga ekspansiya uchun o‘ta raqobatli ustunliklar yaratiladi. “Alibaba” bu – oddiygina raqamli platforma emas, balki platformalar ekotizimidir.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bizga nima beradi?

Raqamli iqtisodiyot korrupsiya va “qora iqtisodiyot”ning asosiy kushandasidir. Chunki, raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma’lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma’lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to‘liq axborot bermaslikning iloji yo‘q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo‘yadi. Ma’lumotlar ko‘pligi va tizimliligi yolg‘on va qing‘ir ishlarga yo‘l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz. Natijada “iflos pullarni” yuvish, mablag‘larni o‘g‘irlash, samarasiz va maqsadsiz sarflash, oshirib yo yashirib ko‘rsatishimkoni qolmaydi. Bu esa iqtisodiyotga legal mablag‘lar oqimini oshiradi, soliqlar o‘z vaqtida va to‘g‘ri to‘lanadi, byudjet taqsimoti ochiq bo‘ladi, ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan mablag‘lar o‘g‘irlanmaydi, maktablar, kasalxonalar, yo‘llarga ajratilgan pullar to‘liq yetib boradi va hokazo.

Raqamli iqtisodiyotning o‘z valyutasi (kriptovalyuta, bitkoin), pul saqlaydigan karmoni (blokcheyn), hisoblash usullari (mayning) kabi terminlari mavjud. Ular haqida yanada batafsil ma’lumot olish tavsiyaqilinadi.

Raqamli texnologiyalar – global hodisadir. Ular yangi, ijtimoiy o‘zaro ish ko‘rish(shaxsiy amaliyotdan alohida ijtimoiy guruhlar, milliy va mintaqaviy hamjamiyatlarnirivojlantirishga taalluqli amaliyotlargacha) foydalanish imkoniyatini berganuniversal axborot-kommunikatsiya muhitini shakllantirdi. Ushbu texnologiyalar insonhayoti barcha sohalarini to‘liq qamrab olgan holda biznes yuritish uchun yangi imkoniyatlarham paydo qildi. Har bir korxona uchun

raqamlashtirish, kichik korxonadan bozorgigantlarigacha ularning raqobatbardoshligi va rivojlanishini qo‘llab- quvvatlashomiliga aylandi. U bozor biznesini ijtimoiylashtirishning zarur shartiga aylanib,iqtisodiy rivojlantirish ko‘lamlarini kengaytirdi, ayni paytda yangi da’vatlar vamuammolarni tug‘dirdi.

Raqamli iqtisodiyotning ijobiy samaralari (raqamli dividendlar) juda xilma-xil vava ular yirik kompaniyalarning tadqiqotlarida taqdim etilgan. Ammo iqtisodiyrivojlanish istiqbollari nuqtai nazaridan raqamlashtirishning juda muhimmultiplikativ samarasiga e’tiborni qaratish zarurdir. Biznesni rivojlantirishningjuda ko‘p an’anaviy yo‘lanishlari – harajatlarni kamaytirish, xaridorlar va mahsulotetkazib beruvchilar bilan o‘zaro hamkorlik shakllarini takomillashtirish,innovatsiyalarga investitsiyalar kiritish raqamli texnologiyalarni joriy etishdaprinsip jihatidan yangi, shu jumladan qo‘shimcha qiymat olish imkoniyatinio‘zgartiradigan va ko‘paytiradigan biznes modellar orqali amalgaoshiriladi. O‘zibevosita ana shu raqamli iqtisodiyotni tashkil etadi, u avvalgi iqtisodiyotlar o‘rniga kelayotgani yo‘q, aksincha yangi innovatsiviy o‘zgarishlarni va bozorlarni kengaytirishni shakllantiradi. Tarkibiy o‘zgarishlar ma’nosida, birinchi navbatda, raqamli texnologiyalarni joriy etishning muhim istiqbolli yo‘nalishi sifatidagi mehnat bozorida ashyolar interneti (Internet of Things – IoT) va uning segmenti-sanoat internetidan (Industrial Internet of Things – IIoT) foydalaniladi. Ularni joriy etish operatsiya va axborot texnologiyalarini o‘zaro integratsiyalashgan ochiq tizimlarga aylantiradi. Bunda yagona axborot maydoniga barcha ishlab chiqarish zanjirlari – mahsulotlarni ishlab chiqishdan sotish va unga xizmat qilishgacha bo‘lgan jarayonlar kapital harajatlar va ish kuchiga kamaytirilishi hisobiga samaradorlik ortishini ta’minlaydi. IIoTlarni joriy etish korxonalarga bekor qilib turishlarini 10 %ga kamaytirish, shuningdek texnik xizmat ko‘rsatishga harajatlarni kamaytirish, jihozlardan voz kechishning oldini olish imkoniyatini berish hisoblab chiqilgan.

Raqamli iqtisodiyotda mehnat munosabatlarini rivojlantirish doimiy xodimlarni vaqtinchalik ijrochilar bilan almashtirishga olib keladi, bunda ishlarning ko‘pgina turlari korxona va hatto milliy chegaralardan minglab kilometr uzoqlikda bajarilishi bo‘ldi. Keyingi yillarda shtatda bo‘lmagan xodimlar – frilanslar soni tez ortayotgani odatiy holga aylanmoqda. Jumladan, faqat AQShda hozirning o‘zida frilans tartibida, shu jumladan o‘rindoshlik asosida ham ishlayotganlar soni 57,3 million kishigayetdi, bu mamlakatdagi ish bilan bandlarning 36%ni tashkil etadi.

Raqamli iqtisodiyotda faqat mehnatning xususiyati emas, shuningdek mehnat munosabatlarining butun tizimi o‘zgaradi. Agar an’anaviy iqtisodiyotda xodim va ish beruvchi o‘rtasida vertikal iqtisodiy aloqalar (boshqarish – bo‘ysunish) mavjud

bo‘lsa, raqamli sektorda rahbar endi boshliq emas balki ko‘pincha uzoq masofadan turib odamlar ishini muvofiqlashtiradigan xodimdir. Tegishli ravishda vertikal aloqalar gorizontal aloqalar bilan almashadi, bunda xodimning kompaniya rahbariyatiga bog‘liqligi jiddiy ravishda bo‘shashadi.

Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish hamda milliy va xalqaro darajalarda biznes ko‘lamlarini kengaytirish uchun korxonalarga endilikda texnikaviy, ishchanlik, shaxslararo va ijodiy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan xodimlar talab qilinadi. Ana shunday sharoitlarda avvalgi ko‘nikmalar yetarli emas, endilikda xodim ishchanlik va shaxslararo munosabatlar sifatlariga ham ega bo‘lishlari kerak. Har qanday ishlab chiqarish jarayoni yoki xizmatlar ko‘rsatish uchun zamonaviy texnikaviy ko‘nikmalar yetakchilik ko‘nikmalari bilan boyitiladigan (C-suite tadbirkorlik darajasi), maxsus raqamli texnologiyalarni boshqarishga mos bo‘lgan xodimlar kerak. So‘nggi paytlarda ish beruvchilar uchun xodimlikka nomzodlarning «egiluvchan ko‘nikmalari» (softskills): shaxsiy sifatlar va ijtimoiy ko‘nikmalar, masalan jamoada ishlash, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlash, o‘zini-o‘zi boshqarish, murakkab vazifalarni hal etishga qodirlik, turli odamlar bilan hamkorlikda ishlash, ustuvorliklarini to‘g‘ri aniqlash talab qilinadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, har bir mamlakat rivojlanishi uchun yangi-yangi o’zgarishlar, g’oyalar ,vaqti-vaqti bilan o’zgarib turadigan yangicha tartiblar bo’lishi lozim. Mamlakatimiz taraqqiyotining istiqboli ham raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning qamrov darajasiga tayanadi.

Davlatimiz raxbari ta’kidlaganlaridek “iqtisodiyotni shakllantirish ko’p mablag’ va mehnat talab qiladi. Ammo biz bundan qo’rqmasdan raqamli iqtisodiyotni shakllantirishimiz kerak. Bu ishni bugundan, hozirdan ma’sulyat va qai’iyat bilan boshlashimiz lozim. Mamlakat rivojlanishi, taraqqiy etishi uchun har bir shaxs mas’ul. Har birimiz bu masalaga jiddiy qarashimiz lozim”. Mamlakatimiz hayotida ham raqamli iqtisodiyotning ayrim elementlari allaqachon muvaffaqiyat bilan faoliyat ko’rsatmoqda. Jumladan, hujjatlar va kommunikatsiyalarning ommaviy ravishda raqamli vositalarga o’tkazilishi, elektron imzoga ruxsat berish, davlat bilan muloqot qilish ham elektron platformalarga o’tkazilmoqda.Asosan ta’limda ham elektron platformalarning tashkil etilib,yuritilishi. Albatta bu soha ya’ni raqamlashtirish to’xtab qolmasligi lozim va boshqa sohalarda ham raqamli iqtisodiyotga o’tish ishlari jadal ravishda amalga oshirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.MY Tirkashev, «THE ROLE OF SMALL SCALE BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF MARKET ECONOMY», МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Моя профессиональная карьера", 34, 2022, 97-102 с.;

2.M Yu Tirkashev, NB Eshtemirov, «FACTORS OF EFFECTIVE USE OF MECHANISMS TO IMPROVE FINANCIAL CONTROL», 2022, Вестник магистратуры, 3-2 (126), 111-112 с.;

3.Djurakulovich Ziyadullaev Makhmudjon. (2022). YESTERDAY'S, TODAY'S AND FUTURE PENSION REFORMS IN UZBEKISTAN. Conference Zone, 119–121. Retrieved from http://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/362;

4.Махмуджон Зиядуллаев (2021). Право на социальное обеспечение в Узбекистане и радикальные реформы, проведенные в пенсионном секторе в 2017-2021 годах. Общество и инновации, 2 (8/S), 121-127. doi: 10.47689/2181-1415-vol2-iss8/S-pp121-127 ;

5.Зиядуллаев, М. (2022). Роль социального обеспечения в стратегии развития Нового Узбекистана . Общество и инновации, 3(4/S), 120–125. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss4/S-pp120-125 ;

6.Зиядуллаев, М. (2021). Сильная социальная защита - требование времени. Общество и инновации, 2(5), 64–68. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5-pp64-68 ;

7.Зиядуллаев, М. (2021). Право на социальное обеспечение в Узбекистане и радикальные реформы, проведенные в пенсионном секторе в 2017-2021 годах. Общество и инновации, 2(8/S), 121–127. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss8/S-pp121-127;